

SHARTNOMA № _____

Toshkent shahar

“__” _____ 20__ yil

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining **Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi** (keyingi o'rinlarda **“Bajaruvchi”**) nomidan nizom asosida inspeksiya boshlig'i _____ bir tomondan, _____ (keyingi o'rinlarda **“Buyurtmachi”**) nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi _____ rahbari _____ ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu shartnomaga asosan **“Bajaruvchi”** **“Buyurtmachi”** ning buyurtmasida ko'rsatib o'tilgan texnik jihatdan malakaliligini ma'qullash (keying o'rinlarda **“Ma'qullash”**) ishlarini amalga oshiradi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatni rasmiylashtirish va **“Buyurtmachi”**ga taqdim qilish yuzasidan tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi.

2. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomaning umumiy qiymati:

t/r	Xizmat nomi	O'lchov birligi	Miq-dori	Ko'rsatiladigan xizmatning qiymati (QQS siz)
1	Aniqlanadigan sinov ko'rsatkichlar yoki o'lchovlar uchun	dona	-	-
2	Joyni o'zida baholash xarajatlarini qoplash - yo'l xarajati	kishi	-	-
	- turar joy xarajatlari	kun	-	-
JAMI				

Jami shartnoma summasi (QQS siz) holda _____ so'm tashkil qiladi.

2.2. **“Buyurtmachi”** **“Bajaruvchi”**ga shartnoma bahosining 30 foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Shartnoma summasining qolgan 70 foizi miqdoridagi mablag' **“Buyurtmachi”** tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar va hisob-faktura asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolib to'lov amalga oshiriladi.

2.4. Ish qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ish hajmi **“Buyurtmachi”** tomonidan o'zgartirilganda;
- ma'qullash obyektlari soni shartnomada ko'rsatilganidan oshirilganda.

2.5. Shartnomaning 2.2-bandida qayd etilgan holatlar vujudga kelganida **“Buyurtmachi”** bilan **“Bajaruvchi”** o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

3. ISHLARNI BAJARISH, TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

3.1. **“Buyurtmachi”** ishlarni bajarish uchun **“Bajaruvchi”**ga sinov laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligini ma'qullash tartib-taomilidan o'tkazish bo'yicha yo'riqnomada keltirilgan hujjatlarni taqdim qiladi. **“Bajaruvchi”** ma'qullashga bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlarni ham talab qilishi mumkin.

3.2. **“Buyurtmachi”** tomonidan shartnomaning 2.1. bandiga asosan to'lovlar amalga oshirilib shartnomaning 3.1. bandiga asosan hujjatlar topshirilgan vaqtdan boshlab 5 ish kunida **“Buyurtmachi”** laboratoriyasida baholashni o'tkazish uchun **“Bajaruvchi”** baholash komissiyasini shakllantiradi.

3.3. Shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangach, **“Bajaruvchi”** amalga oshirgan ishlarni **“Buyurtmachi”** ga topshiradi va bajarilgan ishlar bo'yicha hisob-faktura hamda bajarilgan ishlarni topshirish qabul qilish dalolatnomasi imzolanadi.

3.4. Ariza beruvchi tuzilgan shartnomaga muvofiq ma'qullash ishlarini bajarish bilan bog'liq barcha xarajatlarni, shu jumladan, xizmat safari xarajatlarini, ularning natijalaridan qat'i nazar to'lashi shart.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Ushbu shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki to'liq bajarmaganligi uchun amaldagi qonunchilikka asosan javobgarlikka tortiladi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Agar "Buyurtmachi" ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan e'tiroz yoki shikoyati bilan murojaat qilsa, "Buyurtmachi" ularni "Bajaruvchi" ga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan muddatlarda bildirishga haqlidir.

5.2. Taraflar nizoni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibiga amal qilib, o'zaro kelishuvga erishmagan taqdirda, kelishmovchilik va nizolar javobgar joylashgan tumanlararo iqtisodiy sudida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bo'yicha hal qilinadi.

5.3. "Buyurtmachi" ning "Bajaruvchi" xodimlarining hatti-harakatlari yuzasidan shikoyatlari "Bajaruvchi" direktori nomiga yozma ravishda kiritiladi.

6. FORS-MAJOR VAZIYATLAR

6.1. Agar fors-major holati oqibatida Tomonlar mazkur shartnomada qayd etilgan o'z majburiyatlaridan istalgan birini to'liq yoki qisman bajara olmasa, buning uchun tomonlarning birortasi javobgar bo'lmaydi.

6.2. Tabiiy ofatlar, urush, qamal, sabotaj, jamoat tartibsizliklari, ish tashlashlar, eksport yoki importga taqiq qo'yilishi, karantin va epidemiyalar, Tomonlarga bog'liq bo'lmagan davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi, Tomonlarning mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarishini imkonsiz qilib qo'yadigan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, shuningdek qonunchilikka muvofiq tomonlar oldindan ko'ra olish yoki oldini olishi mumkin bo'lmagan boshqa xodisalar fors-major hisoblanadi.

6.3. Fors-major yuzaga kelganda, mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga imkon bermaydigan holat sodir bo'lgan Tomon zudlik bilan (bunday holat sodir bo'lgan kundan boshlab 3 kundan kechiktirmay) ikkinchi Tomonni fors-major yuzaga kelgani haqida yozma ravishda xabardor qiladi hamda ushbu holatlar sodir bo'lib turgan vaqtda Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni kechiktirishni taklif qiladi.

6.4. Agar fors-major 3 oydan ortiq davom etsa, istalgan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni davom ettirishdan voz kechishga haqli.

7. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI CHORALARI

7.1. Tomonlar ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

7.2. Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

7.3. Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

7.4. Xabarni olgan tomon haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishini to'xtatib turish huquqiga ega.

7.5. Pora berish evaziga ikkinchi tomon vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma 2 (ikki) nusxada tuzilib, taraflar tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va __.__.20__ yilga qadar amal qiladi.

8.2. Taraflarning har biri ushbu shartnomani amalda bo'lgan davrida bekor qilishlik uchun 30 kun oldin yozma ravishda xabardor qiladi va ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilish uchun taraflarning o'zaro kelishuvi asosida, o'zaro kelishuvga erishilmagan taqdirda, sud orqali hal etiladi. Shartnoma bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Shartnoma bandlari tomonlarning yozma kelishuviga ko'ra o'zgartrilishi mumkin. Shartnoma talablariga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar shartnomaning ajralmas qismi bo'lib, qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

9.2. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga Ma'qullash bo'yicha baholash o'tkazishda, kerakli shart-sharoitlarni yaratib berishi shart.

9.3. Shartnoma bekor qilinganida shartnoma yuzasidan haqiqiy harajatlar bo'yicha o'zaro hisob-kitob qilinadi.

9.4. Ushbu shartmada ko'zda tutilmagan qolgan barcha holatlar yuzasidan tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan ish ko'radilar.

9.5. Shartnoma bo'yicha ish, ushbu shartnomaning 2.2. va 3.1. bandlar talablari "Buyurtmachi" tomonidan bajarilgandan so'ng boshlanadi.

9.6. "Buyurtmachi" tomonidan shartnomaning 2.2. va 3.1. bandlarida ko'rsatilgan majburiyatlar 15 (o'n besh) bank kuni davomida kechiktirilgan yoki bajarilmagan taqdirda, mazkur shartnoma o'z kuchini yo'qotadi.

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

BAJARUVCHI	BUYURTMACHI
Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi	
Yuridik manzili: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Zafarobod ko'chasi 7 A uy Joylashgan manzili: Toshkent shahar, Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi 333 A uy STIR: 306 183 891 Sh/hr: 400110860262777049400155001 Buyurtmachining G'aznachilikdagi hisobraqami: G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201 122 919 MFO: 00014 Yagona g'aznachilik hisobi (YaG'H): 23402000300100001010 Telefon: 71-202-00-11 (1804) Boshliq: _____	Yuridik manzili: Joylashgan manzili: STIR: Sh/hr: Buyurtmachining G'aznachilikdagi hisobraqami: STIRi: MFO: Yagona g'aznachilik hisobi (YaG'H): Telefon: Boshliq: _____

«__» _____ 20__ yildagi № _____ - sonli shartnoma O'z R 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni, Fuqarolik kodeksi va amaldagi me'yoriy qonunchilik talablariga javob beradi.

Bosh yuriskonsult: _____